

**ALISHER NAVIOY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI Dsc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

RASULOVA SARVINOZ SADATOVNA

TOHIR MALIK QISSALARI POETIKASI

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti
(XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon)**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическом наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on philological
sciences**

Rasulova Sarvinoz Sadatovna

Tohir Malik qissalari poetikasi.....3

Расулова Сарвиноз Садатовна

Поэтика повесты Тахира Малика.....26

Rasulova Sarvinoz Sadatovna

Poetics of Tahir Malik's stories48

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 53

**ALISHER NAVIOY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI Dsc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

RASULOVA SARVINOZ SADATOVNA

TOHIR MALIK QISSALARI POETIKASI

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti
(XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon)**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2017.1.PhD/Fil33 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsuull.uz) va “Ziyonet” ta’lim axborot tarmog‘ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Karimov Bahodir Nurmetovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yakubov Islomjon Axmedjanovich
filologiya fanlari doktori, professor

Xoliqov Bahodir Aliqulovich
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning “___” _____ 2025-yil soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103-uy. Tel.: (+99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103-uy. Tel.: (+99871) 285-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatildi (2025-yil “___” _____ dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi).

H.A.Dadaboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, f.f.d., professor

Q.U.Pardayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, f.f.d., professor

N.A.Jabborov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar
raisi, f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida XX-XXI asr adabiyoti, xususan nasrida kechayotgan yangilanish jarayonlarini o'rganish, alohida ijodkor adabiy merosini o'z davri, adabiy muhiti va yaxlit adabiy-tarixiy jarayon kontekstida tadqiq etish, ijodining ichki poetik tadrijini kuzatish, adabiy qahramonlarining ierarxiyasi, yozuvchining ijodiy uslubi, badiiy nutqining individualligi, shuningdek syujet poetikasi masalalarini kompleks o'rganish hamisha dolzarb muammo sanalib kelgan. Bu borada salmoqli tadqiqotlar yuzaga kelgan. Mustaqillik davri erkin, plyuralistik tafakkuri ilm-fan ahliga bergan ulkan imkoniyatlar, globallashuv va intensiv taraqqiyot davrida yuzaga kelgan qissa janridagi asarlarni jahon adabiyotshunosligi ilg'or yutuqlari asosida tahlil va tadqiq etish ehtiyoji va zaruratini yanada kuchaytirdi. Inson omiliga katta e'tibor qaratilishi qahramonlar ma'naviy-ruhiy dunyosini azaliy qadriyatlar negizida baholash imkoniyatini ham yuzaga chiqardi. Shu nuqtayi nazardan taniqli o'zbek yozuvchisi, o'zbek adabiy fantastikasining asoschilaridan biri – O'zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malik adabiy merosini qayta baholash, qissalarining badiiy nafosatini inkishof etish ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Dunyo adabiyotshunosligi, xususan postsovet makonidagi qissa janri va uning poetik tabiati bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarning nazariy umumlashmalari ushbu janrning adabiy taraqqiyotning oldingi bosqichlarida yuzaga kelgan namunalarini ham qayta baholash zaruratini tug'dirdi. Zotan, qissa janri taraqqiyotini yangilangan adabiy-estetik kanonlar negizida tahlil va tadqiq etish adabiyotshunoslik ilmini yangi nazariy umumlashmalar hisobiga yanada boyitadi. Bugungi taraqqiyot tamoyillarini oydinlashtirish hamda istiqbolini prognoz qilish imkoniyatini beradi.

Mustaqillik yillarida o'zbek adabiyotshunosligi erishgan yutuqlarga tayangan holda milliy nasrimizning qissa janrida faol ijod qilgan fidoyi adiblar ijodiy merosini qayta baholash, ularning ijodiga impuls bergan oilaviy-genetik kodlar, kamol topgan ijodiy muhit, adabiy izdoshlik, ijodiy individuallik, poetik mahorat sirlarini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda Tohir Malik ijodiy merosining o'zbek qissachiligi taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatish muhim nazariy muammo sifatida qo'yildi. Zotan, madaniy-ma'rifiy, adabiy sohalarida amalga oshirilayotgan yangilanishlar o'zbek adabiyotshunosligi oldiga ham bir qator yangi vazifalar qo'ymoqdaki, "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga innovatsiyaga tayangan davlat yutadi"¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi. – Toshkent, 2017. 23-dekabr.

Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida", 2018-yil 5-apreldagi PQ-3652-son "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-avgustdagi O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir" ma'ruzasi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda joriy dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbek adabiyotida Tohir Malik ayrim asarlarining tahlili R.Ibrohimova¹, H.Karimov², A.Ulug'ov³, T.Shermurodov⁴, K.Turdiyeva⁵, B.Karimov⁶ kabi olimlarning maqolalarida bir qadar o'z ifodasini topgan. Ammo Tohir Malik ijodi evolyutsiyasi, qissalaridagi obrazlar tizimi, syujet poetikasi, zamon va makon uyg'unligi, poetik nutq va uslub masalasi Istiqloq adabiyotshunosligida maxsus tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Biroq adibning ayrim hikoya va qissalari, "Shaytanat" romanining ba'zi qirralari o'rganilgan. Jumladan, T.Irisboyev, Sh.Sulaymonovning tadqiqotlarida o'zbek detektiv adabiyotining taraqqiyot xususiyatlari "Shaytanat" asari misolida; D.Quvvatova, R.Ibrohimovanning dissertatsiyasida o'zbek ilmiy-badiiy fantastikasida folklor motivi Tohir Malik hikoyalari asosida o'rganilgan. B.Xoliqov, R.Umurzoqov⁷ning izlanishlarida "Shaytanat" va "Alvido, bolalik"

¹ Иброҳимова Р. Ўзбек фантастикасида мавзулар кўлами ва ундаги услубий изланишлар // Илм сарчашмалари. – Урганч, 2003. 3-сон; Иброҳимова Р. Ўзбек фантастикаси тараққиёт муаммолари // Соғлом авлод учун, 2003. 7-сон.

² Каримов Х. Фош этишнинг калити – тафаккур // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1998. 13 ноябрь.

³ Шайтанат бозорга чиқди (Тоҳир Малик ва Абдулла Улуғов мулоқоти) // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1996. 8-март; Улуғов А. Маън қилинган майдондагилар // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1998. 17 июль; Улуғов А. Зиддиятлар талқини // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1996. – № 10.

⁴ Шермуродов Т. Ҳидоятнинг машаққатли йўли // ЎзАС, 1998. 30 октябрь.

⁵ Турдиева К. Шайтонсарой фожеаси // Миллий тикланиш. – Тошкент, 1996. 24 декабрь.

⁶ Каримов Б. Бадий талқин жозибаси / Рухият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2018. – 364 б.

⁷ Ирисбоев Т. Ҳозирги ўзбек детектив адабиётининг тараққиёт хусусиятлари (Тоҳир Маликнинг "Шайтанат" асари асосида). Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2001; Сулаймонов Ш. Ўзбек детектив насри: генезиси ва табиати. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2002; Қувватова Д. Ўзбек илмий-бадий фантастикасида фольклор мотивлари. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1997. – 119 б.; Холиқов В. Детектив романларда воқеликнинг бадий талқини тизimli моделлаштириш (Mario Pyuzoning "Cho'qintirgan ota" va Tohir Malikning

asarlarning ayrim qirralari tahlil qilingan. U.Rasulovning¹ doktorlik dissertatsiyasi hamda darsligida adibning “Alvido, bolalik”, “Shaytanat”, “So‘nggi o‘q” asarlari tadqiq etilgan. A.Nomozovning “Tohir Malik gurunglari”² asarida yozuvchi bilan bo‘lgan suhbatlar, savol-javoblar aks etgan. Tohir Malik vafotidan so‘ng xotira kitoblar nashr qilingan. Xususan, E.Malikning “Baxtsizlikdan baxtini topgan Tohir Malik”³, Sh.Qodiriyning “Kunlarning birida Tohir Malik”⁴, “Tohir Malik zamondoshlari xotirasida”⁵ kitoblari shular jumlasidandir. Yuqorida nomi keltirilgan asarlarda yozuvchining hayoti va ijodi bilan bog‘liq qiziqarli voqealar, adib bilan kechgan suhbatlar aks etgan. R.To‘laboyeva⁶, M.Norboboyevalarning⁷ ayrim maqolalarida Tohir Malikning “Alvido, bolalik” qissasidagi yetim bola obrazi tahlilga tortilgan. Lekin yuqoridagi izlanishlarda Tohir Malik qissalari poetikasi masalasi ilmiy izlanish obyekti sifatida maxsus tadqiq etilmagan.

O‘zbek adabiyotshunosligida muayyan adiblar ijodi, ularning asarlaridagi qahramonlarning ruhiy dunyosi, obrazlar rang-barangligi, badiiy asar syujeti va kompozitsiyasi, poetik nutq va uslub masalasi o‘rganilishda davom etayotgan mavzudir. Tohir Malik qissalari poetikasi masalasi, birinchidan, muammoning ayrim qirralarinigina o‘rganish maqsad qilingan maqolalarda, ikkinchidan, hozirgi o‘zbek nasrining nazariy muammolarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlarda biroz yoritilgan. Yuqoridagilarni inobatga olib, Tohir Malik qissalarining badiiy jihatlarini poetika aspektida yaxlit tadqiq qilish, adibning o‘zbek nasri taraqqiyoti, milliy badiiy tafakkur tadrijida tutgan o‘rniga baho berish maqsadi ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Mazkur dissertatsiyada mavzu ilk bor monografik yo‘sinda o‘rganilmoqda.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy tadqiqot rejasining “O‘zbek adabiyotshunosligi va zamonaviy adabiy jarayonni tadqiq etishning dolzarb muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Tohir Malik ijodining evolyutsiyasi, adib qissalarida inson muammosi, personajlar originalligi, syujet kanonlari, ijodkor “men”i va qahramon munosabati, poetik nutq, badiiy tasvir vositalari va uslub badiiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“Shaytanat” asarlari) misolida. Filol. fan. b. dok. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2018. – 170 b.; Umurzakov R. XX asr o‘zbek qissalarida bola obrazi: davr va ruhiyat. Filol. fan. b. dok. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2022. – 135 b.

¹ Расулова У. XX аср ўзбек қиссачилиги (поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари). Филол. фан. докт. ... (DSc) дисс. – Тошкент, 2020. – 249 б.; Rasulova U. Hozirgi adabiy jarayon. – Toshkent: Akademnashr, 2023. – 190 b.

² Namozov A. Tohir Malik gurunglari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 241 b.

³ Malik E. Baxtsizlikdan baxtini topgan Tohir Malik. – Toshkent: Sharq, 2019. – 160 b.

⁴ Qodiriy Sh. Kunlarning birida Tohir Malik. – Toshkent: Yangi kitob, 2020. – 127 b.

⁵ Tohir Malik zamondoshlari xotirasida. – Toshkent: Tohir Malik, 2022. – 343 b.

⁶ Тўлабоева Р. Тоҳир Маликнинг “Алвидо, болалик” асарида замон ва бола образи талқини // ЎзМУ хабарлари. – Тошкент, 2021. – № 1/6/2. – Б. 330-333.

⁷ Norboboyeva M. “Alvido, bolalik” qissasida “Yetim bola” obrazining poetik talqini // Jamiyat va innovatsiyalar. – Toshkent, 2021. – B. 248-252.

Tohir Malik ijodiy muhiti, ilk hikoyalari, fantastik va detektiv qissalarining o‘ziga xosligi, tadrijiy takomilini belgilash;

adib qissalarida inson muammosi, bosh qahramon va badiiy personajlar originalligini tahliliy yoritish;

yozuvchi qissalari uslubiga xos an’anaviylik, originallik, badiiy nutq shakllarining poetik o‘ziga xosligini ochib berish;

Tohir Malik qissalari syujetiga xos badiiy kanonlarni aniqlash, qissa syujeti, zamon va makon uyg‘unligi masalasini yoritib berish;

Tohir Malik qissalari shakllangan muhit, qissa janrining poetik takomili, obraz, uslub va badiiy nutq muammolarini nazariy asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Tohir Malikning “Falak”, “Davron”, “Ov”, “Charxpalak”, “Qaldirg‘och”, “Alvido, bolalik!”, “Murdalar gapirmaydilar”, “Talvasa” kabi qissalari olingan.

Tadqiqotning predmetini bugungi o‘zbek adabiyotshunosligida Tohir Malik qissalarining poetikasi, davr va qahramon tasviri, ijodiy individuallik, qissalar tilida so‘z, ibora, maqol, jargon va argolarining aks etishi, adib uslubiga xos ilmiy-nazariy xulosalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada sotsiologik, qiyosiy-tipologik, germenevtik, kontekstual, komponent, tarixiy-etimologik, tavsiflash, statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Tohir Malik ijodiy muhiti, ilk hikoyalarning mavzu ko‘lami, fantastik, detektiv va biografik qissalarining o‘ziga xosligi, diniy-ma‘rifiy mavzularning XX asr qissalarida aks etishi, asarlarining tadrijiy takomili aniqlangan;

yozuvchi qissalarida inson muammosi, bosh qahramon va badiiy personajlar originalligi tekshirilib, olim, jinoyatchi, izquvar (tergovchi), oshiq, ma‘shuqa va raqib obrazlarining ruhiyatidagi turli-tuman kechinmalarning o‘zgarishlari ijodkor g‘oyaviy maqsadini ifodalashda muhim o‘ringa ega ekani asoslangan;

o‘zbek adabiyotshunosligida yozuvchi Tohir Malik qissalari tilida xalqona obrazli ifoda, jonli xalq tiliga xos unsurlar, frazeologizmlarning o‘rnida va asosli qo‘llangani dalillanib, yozuvchi qissalarida mavjud maqol va iboralar aniqlangan;

yozuvchi qissalarida syujetning originalligi, adibning fantastik hamda detektiv asarlarida adabiy ta‘sir va uslubiy o‘ziga xoslik masalalari asoslanib, adib qissalarida zamon va makon tasvirining individual ko‘rinishlari dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o‘zbek adabiyotida Tohir Malik ijodining izchil badiiy tadriji ko‘rsatilgan, qissalardagi personajlarning ma‘naviy va ruhiy olami tadqiq etilgan;

adib asarlarida fantastik, detektiv talqinlar realistik tasvirga singib ketgani isbotlanib, qissalar syujeti realistik tasvir elementlariga boy bo‘lishi bilan birga, fantastik hodisotlar va detektiv unsurlar bilan ham uyg‘unligi dalillangan;

Tohir Malik qissalarida so‘z qo‘llashdagi tejamkorlik, lo‘ndalik, emotsionallik darajasi lingvopoetik tahlillar asosida dalillangan; poetik til unsurlari haqida nazariy va amaliy umumlashmalar ilgari surilgan;

yozuvchi qissalarida xronotopning individual ko‘rinishlari “Falak”, “Davron”, “Ov”, “Murdalar gapirmaydilar”, “Alvido, bolalik”, “Talvasa” qissalari misolida dalillangan;

Tohir Malik qissalarida mavjud ibora va maqollar qo‘llanish ko‘lami hamda ularning semantikasi, jargonlarning mazmun-mohiyati, varvarizm va vulgarizmlarning personajlar xarakter xususiyatlarini ochib berishdagi roli aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda jahon va o‘zbek adabiyotshunosligi yutuqlari asosida nazariy hamda amaliy umumlashmalar chiqarilgani, qiyosiy-tirixiy, germenevtik, struktur tahlil usullarining bevosita o‘zbek qissachiligi negizida yangilangani, yangi qirralari ochib berilgani, olingan natijalarning nufuzli ilmiy tashkilotlar, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot natijalaridan mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti tarixini o‘rganishda, adabiyot nazariyasi fanining nasr, janr, uslub, badiiy til, syujet, xronotop masalalarini o‘rganishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tahlilga tortilgan materiallardan olingan xulosa va natijalardan “Adabiyot nazariyasi”, “Yangi o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon”, “Hozirgi adabiy jarayon”, “O‘zbek adabiy tanqidi tarixi” kabi fanlardan monografiya, darslik hamda o‘quv qo‘llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Tohir Malik qissalari poetikasi muammosi tadqiqi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Tohir Malik ijodiy muhiti, ilk hikoyalari, fantastik va detektiv qissalarining o‘ziga xosligi, tadrijiy takomili belgilangani, yozuvchi qissalarida inson muammosi, bosh qahramon va badiiy personajlar originalligi tahlil qilinib, obrazlar takomili asoslangani, adib qissalarida zamon va makon tasvirining individual ko‘rinishlari dalillanganiga oid ilmi-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarga bajarilgan F3-201912258-raqamli “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 4-sentyabrdagi 04/1-2249-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada loyihaning ilmiy-nazariy konsepsiyasi Tohir Malik ijodiy muhiti, ilk hikoyalari, fantastik va detektiv qissalarining o‘ziga xosligiga oid yangi xulosa hamda umumlashmalar bilan boyigan;

o‘zbek adabiyotshunosligida yozuvchi Tohir Malik qissalari tilida xalqona obrazli ifoda, jonli xalq tiliga xos unsurlar, frazeologizmlarning o‘rnida va asosli qo‘llangani, yozuvchi qissalarida foydalanilgan maqol va iboralar tasniflangani, yozuvchi qissalarida syujetning originalligi, adibning fantastik hamda detektiv asarlarida adabiy ta‘sir va uslubiy o‘ziga xoslik masalalarining tadqiq qilingani muammosi asoslanganiga oid xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2018-2020-yillarda bajarilgan BV-

Atex-2018-(143) raqamli “Ko‘zi ojiz shaxslar uchun kompyuter texnikasidan foydalanish, matnlarni o‘qish va yozish imkonini beruvchi o‘zbektiliga asoslangan gapiruvchi dasturiy ta‘minot va ovoz sintezatorini ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida “UzNutq Sintezator” kompyuter dasturini yaratishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 19-avgustdagi 04/1-2113-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada elektron platforma maqol, ibora, tashbehtar bilan boyigan;

hozirgi o‘zbek nasrida Tohir Malik qissalarining o‘rniga baho berilganligi, shuningdek, mavzuning badiiy muammo sifatida o‘rganilganidan, adib asarlarining mavzu ko‘lami, obrazlarning individualligi, yozuvchi ijodining evolyutsiyasi, ijodkor laboratoriyasi bo‘yicha chiqarilgan xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi O‘zbekiston teleradiokanali DM “Madaniy-ma‘rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyatining “Ta‘lim va taraqqiyot”, “Adabiy jarayon” radioeshittirishlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali DM “Madaniy-ma‘rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyatining 2024-yil 10-iyuldagi 04-36-830-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada Tohir Malikning hayot yo‘li, qissalarining mavzu ko‘lami, qahramonlari ruhiyati, qissalarning tili va yozuvchi uslubi haqidagi ma‘lumotlar radiotinglovchilarda katta qiziqish uyg‘otgan hamda teleko‘rsatuv materiallarining amaliy boyishiga yordam bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 8 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 6 paragrafni o‘z ichiga olgan 3 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, jami 148 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti, fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e‘lon qilingan ishlar va tadqiqot tuzilishi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Tohir Malik nasri poetik tadriji**” deb nomlangan. Mazkur bob ikki fasldan iborat bo‘lib, birinchi fasli “*Tohir Malik: ijodiy muhit va tadrijiy takomil*” deb nomlanadi. Unda qissaning janr xususiyatlari, Tohir Malik ijodining ilk namunalari tahlil qilindi. Yozuvchi ijodining tadrijiy takomili belgilandi, ularga xos fantastik, detektiv, biografik, didaktik konsepsiyalar yoritib berildi. Ayni masala Tohir Malik ijodini Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor,

Mirakalon Ismoilij, Shukur Xolmirzayevlar asarlari bilan qiyoslandi. Tohir Malik qissalarini turli jihatdan tadqiq etish dolzarb hisoblanadi. Kitobxonlar orasida kuchli aks-sado bergan, katta shov-shuvga sabab bo'lgan, ketma-ket va qayta bosilib, qo'lma-qo'l bo'lib o'qilayotgan hodisa maqomidagi bir asarning muallifi hayoti va ijodini tadqiq qilish, mashhurlik sabablarini o'rganish va xolis ilmiy baho berish adabiyotshunoslik ilmining eng muhim vazifalaridan biri ekani yoritildi.

Qissa janri o'zbek adabiyotida qadimdan mavjud. Unda bir inson hayotida yuz bergan muhim voqea-hodisalardan lavhalar hikoya qilinadi. Qissa, uning janr xususiyatlari, tadriji, uslub, badiiy asar tahlili xususida dunyo adabiyotshunosligida Arastu, M.M.Baxtin, V.G.Belinskiy, V.V.Vinogradov, V.M.Golovko, V.Jirmunskiy, V.Kojinov, L.S.Lixachev, A.A.Potebnya, V.E.Xalizev, M.B.Xrapchenko¹ tomonidan ko'plab munosabatlar bildirilgan. O'zbek adabiyotshunoslaridan I.Sulton, M.Qo'shjonov, O.Sharofiddinov, U.Normatov, B.Nazarov, S.Mirvaliyev, B.Sarimsoqov, A.Abrorov, A.Rasulov, A.Ulug'ov, A.Qozixo'jayev, U.Rasulovning² tadqiqotlarida qissa haqida ilmiy-nazariy, tanqidiy fikr va mulohazalar berildi.

XX asrning 20-30-yillarida o'zbek adabiyotida yozilgan yuzlab qissalarda quyidagi o'ziga xos jihatlar ko'zga tashlanadi: 1) aksariyat qissalarda ma'naviy-axloqiy didaktika ijtimoiy-siyosiy voqealar ifodasidan ustun turadi. Bu xususiyat mumtoz adabiyotdagi qissanavislikning elementlaridandir; 2) tasvirda liro-romantik uslubning ustuvorligi, lirizm va psixologizmning ko'zga tashlanadi; 3) qissada voqealar qamrovining torayishi, voqelikning hodisalar emotsional tahlili bilan o'zgarishga uchrashi. Shunga ko'ra tafsilotlarning, yorqinroq aks etuvchi personajlarning ko'payib borishi va syujetning bir tarmoqli bo'lishi; 4) bularning natijasi o'laroq hajmning torayib, qissadan kattaroq hikoya o'rtasiga tushib qolishi yaqqol namoyon bo'ladi. Albatta, bu ko'rsatilgan belgilar shartli xarakterga ega. Ular janr belgilaridan ko'ra ko'proq janrning ichki xususiyatlariga doir bo'lishi mumkin. E'tiborlisi, qissachiligimizning so'nggi 15-20 yil ichidagi taraqqiyotida shu belgilar ko'zga tashlanadi.

60-70-yillar o'zbek adabiyotida qissachilik gurkirab rivojlangan davr bo'ldi. Yiliga jurnallarda, alohida kitob holda bir necha o'nlab qissalar e'lon qilindi. Shuning uchun bu katta "hosil"ni yaxlit umumlashtirish, uning taraqqiyot yo'llarini to'liq qamrab olish mushkul vazifa. Ularning ichida fantastik qissalar ahamiyatli. Uning rivoji, asosan, 60-70-yillarga to'g'ri keladi. O'zbek adabiyotida fantastik asarlarning rivojida yozuvchi H.Shayxov, M.Mahmud, T.Malikning xizmatlari juda katta. Ularning "Alanga", "Rene jumbog'i", "Qora tuyruk sari", "Olmos jilosi",

¹ Арасту. Поэтика. Ахлоқи Кабир. Риторика. – Т.: Янги аср авлоди, 2001. – 351 б.; Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975. – 502 с.; Белинский В.Г. Собрание сочинений. Т. 3. – М., 1978. – 271 с.; Виноградов В.В. О теории художественной речи. – М.: Высшая школа, 1971. – 118 с.; Головкин В.М. Поэтика русской повести. – Саратов, 1992. – 276 с.; Жирмунский В. Стихотворение Гёте и Байрона: Ты знаешь край?.. – М.: Изд. МГУ, 1961. – 294 с.; Кожин В. Повесть. Словарь литературоведческих терминов. – М.: Просвещение, 1974. – 272 с.; Лихачев Л.С. Нравственно-художественная проза. – М.: Художественная литература, 1984. – 314 с.; Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – М.: Искусство, 1976. – 614 с.; Хализов В.Е. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 2002. – 397 с.; Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – М.: Писатель, 1975. – 407 с.

² Ushbu mualliflarning tadqiqotlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qismida batafsil berilgan.

“Shom qamari”, “Ajdodlar xotirasi”, “Falak”, “Davron”, “Ov” qissalari o‘zbek adabiyotida fantastik adabiyotning shakllanish omillarini belgilaydi.

Bu qissalarda yozuvchining o‘tkir nigohi asrlar osha kelajakka parvoz qiladi, ilmiy xulosalarga asoslangan holda, insoniyat kelajagi, yerdan uzoqdagi sayyoralar hayoti haqida bashorat qilinadi, muhim ilmiy gipotezalar olg‘a suriladi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, fantastika ilm-fan va unda erishilgan yutuqlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Ilm-fandan ajralgan joyda fantastik vaziyat bo‘lmaydi.


Hozirgi kunda ham turli-tuman, rang-barang mavzular ko‘tarilgan yuzlab qissalar maydonga keldi. O‘zining ommabopligi, qulayligi, o‘qishligi bilan qissalar hikoyachilikni ham, romanchilikni ham ancha ortda qoldirdi. Adabiyotshunos A.Qozixo‘jayev qissaning janr xususiyatlarini quyidagicha belgilaydi: “Qissa janrida o‘z badiiy konsepsiyasini to‘liq ifodalay olgan muallif uslubi – qissaga xos. Qissada qahramon bilan yonma-yon yurgan muallif, biron soniya qahramonni tashlab qo‘yib, narigi tomonga o‘zining “lupasi”ni tutmaydi. Qahramon atrofini va bu atrofdagi qarama-qarshi ziddiyatlarni tasvirlashga ijodkor kirishib ketsa, qissaning bosh o‘zani yo‘qolib, romanga aylanib qolishi mumkin. Ikkinchi darajali personajlarning kechinmalari ham bosh qahramon kechinmalari ichida berilishi, bosh qahramon munosabatining ifodasi tarzida tasvirlanishi qissaga xos xususiyatdir”¹. Darhaqiqat, qissada individual shaxs talqini birinchi o‘rinda turadi. Ijod erkinlikni sevadi. Biroq janrning mohiyatini bilish, qamrovini anglash esa qissani boshqa janrlardan ajratib olish uchun o‘lchov hisoblanadi.

Dissertatsiyada Tohir Malik ijodi uch davrga bo‘lib o‘rganildi:

1. Mustaqillikkacha bo‘lgan davr.
2. 1991-yildan – 2000-yilgacha bo‘lgan davr.
3. 2000-yildan keyingi davr.

Ikkinchi davr adib ijodining eng salmoqli qismini tashkil etadi. Bu davrda Tohir Malikning beshta yirik asari yozildi. Bular: “Shaytanat”, “Murdalar gapirmaydilar”, “Talvasa”, “Ov”, “Charxpalak” asarlaridir. Shular asosida yozuvchi ijodining tadrijiy takomili belgilandi.

Adib asarlari quyidagi yo‘nalishlarga ajratib tadqiq etildi (1-rasm).



¹ Қозихўжа А. Гар ортуқ сўз дедим... – Тошкент: Nurafshon business, 2021. – Б. 185.

Tohir Malik muqim bir joyda uzoq vaqt ishlamagan. Bizning fikrimizcha, bu muqimsizlik adib asarlarining serqirra bo‘lishiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Adib hayotida sodir bo‘lgan fojeyi voqea uni detektivdan didaktikaga yaqinlashtirgani dalillandi.

Tohir Malik bir suhbatida birovlarning yurgan yo‘lidan yurgisi kelmasligini, hatto, ko‘proq o‘z yo‘lida qolib ketsa o‘z yo‘li ham unga yoqmay qolishini hazil aralash aytib o‘tgan. Yana bir suhbatida adib “Qachon mendan zo‘r fantast yozuvchi chiqsa, fantastika yozishni bas qilaman”, degan fikrni bildiradi. Bundan ko‘rinadiki, yozuvchi qaysi yo‘nalishda zo‘r asar yaratsa, o‘sha yo‘nalishni vaqtinchalik to‘xtatib, boshqa yo‘nalishda asarlar yozishni mashq qila boshlaydi. Eng asosiysi, yozuvchi qaysi yo‘nalishda ijod qilmasin o‘quvchi bilan dildan suhbat qurishni unutmaydi. Asarlari uchun mavzu va syujetlarni hayotdan oladi, ularni qayta ishlab, o‘quvchining o‘ziga taqdim etadi.

Bobning **“Tohir Malik original qissanavis sifatida”** deb nomlangan ikkinchi faslida “Falak”, “Davron”, “Zaharli g‘ubor” singari fantastik, “Alvido, bolalik”, “Ov”, “Charxpalak”, “Murdalar gapirmaydilar”, “Talvasa”, singari detektiv, “Savohil”, “Ozod inson haqida qo‘shiq” singari biografik qissalari tasnifiy o‘rganildi hamda o‘ziga xos qissanavis sifatida kamol topishi masalalari o‘rganildi. Bu qissalarda yozuvchining kelajakka oid badiiylashtirilgan ilmiy gipotezalari namoyon bo‘lgan. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, fantastik asarlarda erishilgan yutuqlar adibning ilmiy tafakkuri va bilim doirasining kengligi bilan bog‘liqdir.

Adibning 1978-yilda yozilgan “Davron” qissasi qahramonning ismi bilan nomlanishi, unga metaforik ma’no yuklangani jihatidan originaldir. Qissada Davronning izlanish va mushohadaga boy hayoti haqida hikoya qilinadi. Qissa syujeti realistik tasvir elementlariga boy bo‘lishi bilan birga, fantastik hodisotlar bilan ham uyg‘undir. Bosh konsepsiya insoniy fe‘l-atvorning turlichaligi, nafs va uning nayranglari, sinov yo‘li mashaqqatlaridir. Qissada ayni holatlar personajlar aro dialog usulida badiiy tasvir etilgan. “Falak” qissasida elalloma qurilmasi misolida muhim ilmiy g‘oya ilgari surildi.

“Murdalar gapirmaydilar” qissasida bosh mavzu o‘zni va basharni anglash, inson va vijdon, inson va adolat, haqiqatparvarlik, inson va axloq konsepsiyasidir. Bu badiiy muammo asarda o‘g‘riboshi Tengiz syujeti va xarakteri tasvirida psixologik talqin etildi.

Adibning “Charxpalak” qissasidagi qahramon xarakteri bosh qahramon Komilning ilmiy kashfiyoti ortidan chekkan mashaqqatlarini tasvirlash orqali ifodalanadi. Qahramonning sirli o‘limi yuzasidan olib borilgan tekshiruv jarayonida ham adibning e’tiborini tortgan mavzular kuzatiladi. Qissada sotsialistik tuzum davrida jamiyatdagi ijtimoiy kamchiliklar, insoniy qusurlar bilan birga shu tuzum ta’siridagi insonlarning fojiali qismati yoritiladi.

Tohir Malik yerdagi muammolarni osmonga ko‘chiradi. Ilmiy-fantastik adabiyot vakili Jyul Vern ta’kidlaganidek: “... Insoniyat tasavvur qilishga qodir bo‘lgan barcha narsa boshqa kishilar tomonidan ro‘yobga chiqadi”¹. Darhaqiqat, fanning cheksiz imkoniyatlari va insonning kuchiga bo‘lgan ishonch fantastik

¹ Верн Ж. Собранные сочинение в 15 томах. Т. 4. – М., 1956. – С. 464.

adabiyot realizmining asosiy mezonini belgilaydi. Tohir Malikning “Falak” qissasida ilmiy fantastik g‘oya ilgari suriladi, ya’ni olim elalloma atalmish qurilmani ixtiro qiladi. Uning yordamida inson o‘tmishga safar qilishi mumkin. XV asrga oid bo‘lgan sag‘ananing topilishi ixtirochi olim uchun ayni muddao bo‘ladi. U qurilma yordamida Ulug‘bek zamoniga sayohat qiladi.

Ilm ravnaqiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi illatlar haqida “Falak”, “Zaharli g‘ubor”, “Somon yo‘li elchilari” (“Davron”), “Devona”da turli usullarda fikr yuritiladi. “Falak” qissasidagi qahramonlar – Jahongir va Jamshid “Davron” asaridagi dotsent Bekmirzayev bilan Davron obrazlaridan keskin farq qiladi. Biroq ularning adolatsizlikdan jabr chekishlarida o‘xshashlik bor. “Eng yaxshi fantastik asarlarning mavzusini muayyan ilmiy g‘oya va ilmiy gipoteza tashkil qiladi”¹. Tohir Malik ham “Falak” qissasida elalloma qurilmasi misolida muhim ilmiy go‘yani ilgari suradi. Yozuvchi asarlarida jamiyat turmushiga xos ijtimoiy muammolar, shaxs va oila, shaxs va milliy axloq, ijodkor, ayol, ota-ona va farzandlar qismati qalamga olinadi. Adib asarlarining zamiriga hech kim jinoyatchi bo‘lib tug‘ilmaydi, ularni odamlar, jamiyat jinoyatchi qilib qo‘yadi, albatta, jinoyat jazosiz qolmaydi, – degan g‘oya singdirib yuborilgan.

Yozuvchi har bir asarini qayta-qayta o‘qib, tahrir qilib, hatto asarning nomini ham o‘zgartirganligini ko‘p uchrashuvlarda ta’kidlaydi. Aksariyat asarlari senzura sababli o‘zgartirilib nashr etilgan. Mustaqillikdan keyin esa adib o‘z asarlarini qayta tahrir qilib, yopishmagan o‘rinlarini to‘g‘rilab, boshqa nom bilan nashr qildirgan. Xususan, “Somon yo‘li elchilari” – “Davron”, “Qaldirg‘och” – “Savohil”, “Chorrahada qolgan odamlar” – “Devona”, “Odam ovi” – “Ov” shular jumlasidandir.

Dissertatsiyaning “**Yozuvchi qissalarida inson tasviri muammosi**” deb nomlangan ikkinchi bobi ikki fasldan tashkil topgan. Bobning “**Qissa janrida bosh qahramon, obraz va personaj**” nomli paragrafida “Falak”, “Ov”, “Davron”, “Murdalar gapirmaydilar”, “Alvido, bolalik” qissalaridagi obrazlar, ularning ruhiy holatlari, kechinmalari tadqiq etildi. Inson hayotidan, real voqelikdan, fikrlar, tuyg‘ular, kechinmalar silsilasidan nimalarnidir izlab topib, kashf etib, ularni nimalargadir ulab, “payvandlab”, o‘ziga xos yangi olam – obrazlar olami, badiiy tiplar, xarakterlar olamini yaratgan va shu olam orqali davr ruhini, zamon taraqqiyoti mohiyatini yoritgan yozuvchi ong-u tafakkurimizni o‘zgartirishga, bebaho zavq-shavq, ma’naviy qudrat berishga qodirdir. Bunday yozuvchining o‘zi bir dunyodir. Bu dunyoning o‘z fuqarolari bor. Tohir Malikning badiiy olami ham ana shunday dunyo. Tengiz, Toshbolta, Nuriddin, Tursunali, Omonullo, Soli Murodov, Maqsud Soliyev, Keldiyor, Akrom Berdiyurov Toshqul, Qamariddin, Asror, G‘ayrat, Dilfuzalar esa ana shu dunyoning odamlaridir.

Tengiz – “Murdalar gapirmaydilar” qissasining bosh qahramoni. Juda qahrli, kibrli, o‘g‘rilar olamining knyazi. Qamoqxona ichidagi o‘g‘rilarning sardori. Beshafqat, bemehr, qahri qattiq o‘g‘ri. Biroq uning zehni o‘tkir. U ulkan aql-zakovat va ilm egasi. U onasidan o‘g‘ri bo‘lib tug‘ilmagan. Ota-bobosi ham o‘g‘ri emas. Tengizning iymoni but, e’tiqodi mustahkam, biroq namoz o‘qimaydi, Alloh uning

¹ Иброҳимова Р. Ўзбек фантастикасининг тараққиёт муаммолари. – Тошкент, 2003. – Б. 241.

qalbida. U qasoskor! Ona yurtiga bostirib kelgan bosqinchilardan o'ch olishga bel bog'lagan yurt farzandi.

Adolat – Toshboltaning ikkinchi xotini, Nafisaning o'gay onasi. Tabiatan qo'rs, sergap, boylikdan boshqa narsani o'ylamaydigan yomon xotin va yomon ona. Toshbolta uni cho'ldagi sovxozda uchratgan edi. Adolatning jilmayib qo'yishlariga xushtor bo'lib, odam qo'ydi. U ham tarang qilib, nozlanib o'tirmadi. Chunki uning cho'lga kelishdan maqsadi “cho'lquvarlik” emas, balki “erquvarlik” edi. Nafisani Tursunaliga ro'para qilish fikri ham birinchi shu ayoldan chiqqan edi. Eri kasal bo'lib, tildan, qo'l-oyoqdan qolganda ham faqat boylikni, o'zini o'ylaydi.

“Alvido, bolalik” qissasi qahramonlari – o'rta maktabning yuqori sinf o'quvchilari Asror, Salim, Dilfuza va boshqalar. Ilgari qamalib chiqqan Qamariddin, Afg'onistonda xizmat qilib qaytgan Tal'at ularni jinoyat ko'chasiga boshlaydi. Mayor Soliyev jinoyatning iziga tushadi, aybdorni fosh qiladi. “Otarchi”ning o'g'li Asror, uning yaxshi ko'rgan qizi Dilfuza obrazlarini ham yozuvchi mahorat bilan tasvirlashga muvaffaq bo'ladi. Bolalarning bilib-bilmay jinoyatga qo'l urishiga sabab bo'lgan omillarni yozuvchi ularning tarbiyasidan, oila muhitidan qidiradi: ayrim ota-onalar kunda janjaldan bo'shamaydi, ba'zilar boylik to'plashga mukkasidan ketadi va bolalarni nazorat qilishga vaqtlari bo'lmaydi. Ayrimlar ajralib ketib, bolalar arosatda qoladi.

“Talvasa” asarida yozuvchi Bo'ron, Akmal Berdiyurov, Akula, Xanifa, Shavkatlarning jinoyat ko'chasiga qanday kirib qolganini, hayoti nega bu o'g'rilar bilan bog'langanini ochib beradi. Bo'ron jinoyat olamining ko'zga ko'ringan, shafqatsiz vakili. Uning asl ismi Keldiyor Berdiyurov. Akmal Berdiyurovning amakivachchasi. Bo'ron qasos o'tida necha yillardan beri yonadi. U o'z amakivachchasi Akmal Berdiyurovdan qasos olishni ancha yillardan buyon diliga tugib qo'ygan.

Tohir Malik “Qaldirg'och” qissasini yozishdan oldin ustoz Begali Qosimov bilan suhbatlashib, Avloniy haqida badiiy asar yozish niyati borligini aytadi. Shundan so'ng bir necha yil eshitgan va to'plagan manbalariga tayanib, Abdulla Avloniy tavalludining 100 yilligi munosabati bilan ushbu asarni yozadi. Adib asarda Avloniyning “Afg'on sayohati” maqolasidan keng foydalanadi. Asarda xalqimiz, mamlakatimiz tarixida g'oyat og'ir bo'lgan 1919-yil voqealari, ochlik, vayronagarchilik samimiy va ro'yirost yetkazib beriladi. Tohir Malik qissada Avloniyning prototipini yaratishda uning jamiyat hayotidagi roli, o'rnini tarixiy haqiqatga mos ravishda buzmasdan, haqqoniy tasvirlaydi. Prototip adabiyotshunoslikda badiiy obrazni yuzaga keltirishda negiz, asos, bosh yo'nalish nuqta, poydevor sifatida xizmat qiluvchi real shaxs (hayotda bo'lgan tarixiy shaxs) ma'nosida qo'llaniladi.

“Charxpalak” qissasida Komilning halolligi, vijdonliligi orqali ilmiy kashfiyotlarining ortga surilishi qarama-qarshi qo'yiladiki, bunda jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar murakkabligi yuzaga chiqishi kuzatiladi. Asarda hasad, gina, o'ch olishga moyillik kabi insoniy qusurlar personajlar nutqi orqali ochib beriladi. Qing'ir ishlarga yo'l qo'yish, insonlarning haqqiga xiyonat qilish kabi mavzular asosiy mavzuga birlashadi. Qissada oilaviy sirlar haqida ham so'z boradi.

Farzandsizlik, sof muhabbat mavzusining tasvirlanishi Mavluda va Komilning munosabatlarida o‘z aksini topadi. Bundan tashqari qissada insonning o‘z manfaati yo‘lida ming bir tusga kirishi, xiyla, nayranglarni o‘ylab topishi ham ochib beriladi. Bundan tashqari, Tohir Malik qissalarida olim, jinoyatchi, izquvar (tergovchi), oshiq, ma’shuqa, raqib obrazlari tahlil qilindi.

Mazkur bobning **“Adib qissalarida uslub va poetik nutqning o‘ziga xosligi”** sarlavhali ikkinchi paragrafida Tohir Malik uslubining o‘ziga xos jihatlari, asarda foydalanilgan badiiy tasvir vositalari, peyzaj tasviri, badiiy asar tilining o‘ziga xosligi o‘rganildi. Tohir Malik qissada portret yaratishga alohida e’tibor qaratishi, peyzajdan esa kerakli o‘rinlarda foydalanishi dalillandi. Uslub har bir yozuvchida turlicha bo‘ladi. Tohir Malik ham yozuvchi sifatida o‘z uslubiga ega. Bu uning tilida, qahramonlar portretini chizishda, tasvir va ifoda vositalardan foydalanishda ko‘zga tashlandi. Ushbu faslda Tohir Malikning so‘z qo‘llash mahoratiga baho berildi. Darhaqiqat, adib asarlarining tili ravonligi, tushunarligi, qiziqligi, shiraligi bilan ajralib turadi. Asarda keltirilgan iboralar, maqollar, hikmatli so‘zlar, vulgarizm, varvarizm, argo va jargonlar jadvalda aks ettirildi. Ibora va maqollarning asarda qanday vazifa bajargani asoslandi. Yozuvchining tilni puxta bilishi, badiiy to‘yintirilgan so‘zlarni o‘rnida qo‘llay olishi, turli tasviriy vositalar orqali jonli, obrazli ifodalar yaratib, mantiqiy izchil, asosli xulosalar chiqarishi fikrni aniq lo‘nda bayon qilishida namoyon bo‘ldi.

Har bir san’atkorning olami – hayotiy tajribasi, bilish darajasi, didi, go‘zallikni ko‘ra bilishi, tasavvuri, xayolot dunyosi, qalb ko‘zi o‘zigagina tegishlidir va ana shu o‘zlik uning har bir asarida akslanadi. “Yozuvchining mazmun bilan shaklga quyma bir holat bag‘ishlay olish qobiliyatini va shu bilan birga hamma-hamma narsaga o‘z shaxsi, o‘z ruhini takrorlanmas, original muhrini tushirib o‘ta olish xususiyatini – uslub deb belgilash to‘g‘ridir”, – degan V.G. Belinskiy¹.

Uslub badiiy shaklning tartiblashuvi, sistemalashuvini, turli komponentlarining ichki birligini anglatishi, shakl elementlarining bu uyushuvi va tartiblashuvi ularning umumiy mantiqiy vazifa-maqсадiga bo‘ysunuvidan vujudga keladi. “... Individual uslub, – deb yozadi adabiyotshunos N.Shukurov, – ... ijodkorning voqelikni o‘zicha idrok etishi, voqea-hodisalarni o‘ziga xos obrazlar va ifoda-tasvir vositalari bilan aks ettirish...”² Demak, uslub – yozuvchining voqelik va insonni idrok qilishi, ularning qalbidagi haqiqatlarni kashf etishi va uni so‘z vositasida obrazli ifodalay olishi – bu vazifalarni individual tarzda yaratish san’atidir. Uslub har bir yozuvchida turlicha bo‘ladi. Tohir Malik ham yozuvchi sifatida o‘z uslubiga ega. Bu uning tilida, qahramonlar portretini chizishda, tasvir va ifoda vositalardan foydalanishda ko‘zga tashlanadi. Yozuvchi “Murdalar gapirmaydilar” qissasida qahramonlarga portret yaratishda Qodiriydek obrazlarning tashqi ko‘rinishini mufassal chizish yo‘lidan bormagan. U deyarli barcha qahramonlarga boshdan-oyoq portret yozmaydi. Yozuvchi qahramonlarining qiyofasi, xarakteriga xos ayrim detallarni berish bilan kifoyalangan: “... Istarali bu

¹ Umurov H. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Xalq merosi, 2004. – B. 245.

² Shukurov N. Uslublar va janrlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1978. – B. 7.

yigitning pokiza odam ekanini yuzidan yog‘ilib turgan nur oshkor etib turardi”¹. Yozuvchi so‘z qo‘llashda ham ehtiyotkor bo‘lib, ma‘lum bir vaziyat va holat, umuman, voqelikni tasvirlashda so‘zlarni topib o‘rnida ishlata oladi. Asarda yuzlarcha maqollar, maxsus ifodalar, tugal gaplar, qochirimlar, so‘z o‘yinlari ko‘zga tashlanadi. Yozuvchi personajlar nutqiga juda ustalik va me‘yorni saqlagan holda xalq maqollari, frazeologik birliklarni kiritadi. Ular qahramonlarning ruhiy dunyosini, xarakterini, aslida qanday insonligini teranroq ochishga turtki bo‘ladi: “... Aslida Toshbolta yulduzni benarvon uradiganlar toifasidan emas edi. Tursunali gumon qilganidek, ozgina laqmaligi ham bor edi. Ammo kattaroq daromadning hidini sezsa, laqmalikni quvar edi... Cho‘ntak pulga to‘lgach, yurish-turishi ham bo‘lakcha bo‘ldi. Ko‘rmaganning ko‘rgani qursin, deganlari shu-da!”² Yozuvchi asarda o‘g‘rilar, jinoyatchilar to‘dasiga tegishli bo‘lgan so‘z va iboralarni ham aynan beradi. Biroq bunday qo‘llash hech qanday g‘alizlikni keltirib chiqarmagan. Aksincha, asar syujetining ishonarli chiqishiga sabab bo‘lgan. Bu ham yozuvchi uslubining bir qirrasidir: “– Tog‘ dedingmi?.. Ammo suyanish uchun tog‘ haqini to‘lashing kerak. Ochiqlikda har oy maosh olardingmi? Ha, olarding. Xuddi shunga o‘xshab, suyanadigan tog‘ haqini har oyda to‘lab turasan. Sen bugun biksangga bir malyava yozasan. Har oyda pul yuborib turadi... Agar shartimizni bajarmasang, avvaliga tramvayga qo‘yamiz. Keyin bespredelshikning ermagiga topshiramiz”³.

Tohir Malik qissada portret yaratishga alohida e‘tibor qaratadi. Peyzajdan esa kerakli o‘rinlarda foydalanadi. M. Qo‘shjonov Qodiriyning tasvirlash usuli haqida gapirar ekan: “Umuman, Qodiriy peyzaj tasvirida ancha ziqna yozuvchilardan. U peyzajga tez-tez murojaat qilavermaydi. Murojaat qilgan taqdirda ham undan unumli foydalanadi”⁴, – deydi. Bu usul Tohir Malikka ham tegishlidir. Yozuvchi tabiatga murojaat qilgandayam tasvirni mahorat bilan juda go‘zal usulda beradi. Tabiatning har bir go‘shasiga, jonzotiga jilo, rang, jon ato qiladi. Tashbeh, o‘xshatish, istioralar, jonlantirishlar qo‘llaydi: “Quyosh yoz fasliga xiyonat qilib, kuzning zaharli nafasi hukmini o‘tkaza boshlagani uchun chaylaga joylashgan “politbyuro”ning “shtab-kvartira”si barakka ko‘chirilgan edi. Bu yerlarning betayin havosi o‘zini namoyish etgan – ezib yoqqan yomg‘irdan so‘ng oz fursat yuz ochuvchi oltob badanga harorat berishga ulgura olmas ham edi. Mahbuslarni qiyratib tashlagan chivinlar kelgusi yozda uchrashish umidida issiq uyalariga kirib ketganlar. Chivinlar azobidan qutilgan mahbuslar uchun shu shilta ayozli mavsum a‘loroq tuyular edi”⁵.

Voqelikni so‘z yordamida obrazli aks ettirishda Tohir Malik milliy tilimizning butun boyligidan, bitmas-tuganmas xazina va imkoniyatlaridan unumli ravishda bahra oladi. Obrazni vujudga keltirish uchun har doim maxsus so‘zlardan, xususan, o‘xshatish, sinonim, antonim, omonim, maqol, matal, frazeologizmlar, jargon va argo, vulgarizm, metafora va jonlantirish singari tasviriy vositalardan keng hamda o‘rinli foydalanadi.

¹ Тоҳир Малик. Мурдалар гапирмайдилар. – Тошкент: Шарк, 2004. – Б. 8.

² О‘sha asar. – В. 151-152.

³ О‘sha asar. – В. 13.

⁴ Қўшжонов М. Ҳаёт ва қаҳрамон. – Тошкент: Фафур Ғулом, 1979. – Б. 52.

⁵ Тоҳир Малик. Мурдалар гапирмайдилар. – Тошкент: Шарк, 2004. – Б. 23.

Badiiy asar tilini yanada jozibali, shirali, bo‘yoqdor qiladigan yana bir unsur bu iboradir. “Murdalar gapirmaydilar” qissasida yozuvchi iboralardan juda unumli foydalanadi: tuzini yeb tuzlig‘iga tupurganlarni la‘natladi (7-bet); egar urilmagan asov ot (67-bet); u yulduzni benarvon uradigan toifadan emasdi (151-bet); ko‘rmaganning ko‘rgani qursin (152-bet); me‘daga teguvchi bu “katta ashula” oxiri Nuriddinning sabr kosasini toshirdi (173-bet); eski pichoqqa sop ham bo‘la olmaydigan domlalarilm ilm olgansan (266-bet); og‘zidagi luqmasini oldirib qo‘ygan (260-bet); Koshakning kuydirgan kallani eslatuvchi tirjaygan basharasi ko‘rindi (270-bet). Tohir Malik qissada badiiy tasvir vositasidan o‘xshatishni juda ham topib o‘rnida qo‘llaydi: “Qora bulut choki so‘kilib, birdan quyosh charaqlaganday bo‘ldi” (11-bet). Qahramonlarning holatini, xarakterini ochib berish maqsadida yozuvchi tabiatda sodir bo‘ladigan hodisalardan unumli foydalanadi. “Kundoshlarning bir-biriga tikilib qolishganini vulqon arafasidagi sukunat deb bilib, portlash yuz bermasidan o‘zini chetga olishni ma‘qul ko‘rdi” (44-bet); “Dunyo bamisoli ko‘karib tezda qurigan dalaga o‘xshashini, ehtiyotsizlik qilinsa, bu manzara kishini aldab qo‘yajagini, aldangan esa bir kuni hayoti sarg‘ayib so‘la boshlagach, ma‘yus va g‘amgin bo‘lajagini anglaydi... Dunyoni fohishaning quchog‘iday totli deb o‘ylaydi. Dunyoning botqoq yuzasini qoplagan o‘tloqqa o‘xshashini, o‘ylamay tashlangan har bir qadam botqoqqa botirajagi mumkinligini fahm etmaydi” (81-bet).

Tohir Malik jinoyat olami, o‘g‘rilar to‘dasi va ularning xarakterini juda yaxshi biladi. Shuning uchun ham u qator asarlarida jargon va vulgarizmlardan oqilona hamda o‘z o‘rnida foydalanadi. Bu an’anani “Murdalar gapirmaydilar” qissasida ham davom ettiradi. Yozuvchi jargonlarni qissada hech bir o‘zgarishsiz aynan o‘zini qo‘llaydi. Quyida asarda qo‘llangan jargonlarni berib o‘tamiz.

Asarda qo‘llangan jargonlar	Jargonlarning ma‘nosi
chuchmek	<i>o‘zbek;</i>
passajir	<i>tasodifan qamalgan odam;</i>
pupkar	<i>militsiya;</i>
chestnyaga	<i>halollik;</i>
kozyol	<i>qamoqxona ma‘muriyatiga sodiq yordamchi;</i>
biksa	<i>xotin;</i>
malyava	<i>xat;</i>
bespredelshik	<i>vahshiysifat odam;</i>
tramvayga qo‘yish	<i>hammomga olib kirib, 20-30 tasining galma-gal “gaplashishi”;</i>
kum	<i>lager boshlig‘i;</i>
lepila	<i>do‘xtir;</i>
politbyuro	<i>e‘tiborli o‘g‘rilarning mashvarati;</i>
royalda o‘ynamoq (sigrat na royale)	<i>barmoq izlarini qodirmoq;</i>
jmura	<i>qanjig‘;</i>
elkanlarini poralab tashlash	<i>besoqolbozlik;</i>
ko‘mirxona	<i>qimor o‘ynaladigan joy;</i>
bikovatiy	<i>aqlsiz, to‘nka;</i>
juchok	<i>yosh o‘g‘rilar;</i>
zakroy podduvalo yoki privyaji metlu	<i>og‘zingni yop;</i>
udav	<i>bo‘g‘ma ilon;</i>
zekvagon	<i>mahbuslarni tashuvchi qamoq vagoni.</i>

Yozuvchi qamoqxonadagilar, xususan, o‘g‘rilar tiliga xos ayrim iboralarni, so‘zlarni tarjima qilmay yozishni ma‘qul ko‘radi. Buni asarda ham alohida ta‘kidlab o‘tadi. Bundan tashqari yozuvchi o‘z asarida ayrim qahramonlarning

madaniyatsizligi va dag'alligini bo'rttirib ko'rsatish uchun vulgarizmdan foydalanadi. Bu, xususan, Adolat, Toshbolta, Tursunalining xarakterini ochishda yaqqol namoyon bo'ladi: Obbo xunasa-ey, Tursunali tupurgan-u u yalagan; qanjiq, saloming boshingni yesin, he enangdi... uying kuygur; g'ar, – ha g'ar bo'lmay go'rmidi? Tirik o'likning o'zginasi, o'lib o'lmaydi, jonlanib jonlanmaydi. Boshingga bitgan balo bo'ldi. Traktorchiligida yag'irlarini yuvaverib qo'lim qavargan edi, endi isqirtlarini yuvish ham peshonamga yozilgan ekan... Ayting, o'lib qolmasin, o'lsa butun yiqqan-terganlarim sovruladi... Do'xtir o'lgur nuqul qimmatini tanlab yozib beribdi; shilta, huv qoralaring o'chsin-a, yer yutkurning sirini men bilmay, yana kim bilsin? Abort; o'lmay o'la qolsin, bu qiz o'lgur, boshingga bitgan balo bo'ldi; megajin, o'ynash, erkaksirab boradi-da, it g'ajib tashlagan bir suyak edi, shu sarqitning barmog'iga 2 ta uzuk taqasanmi? Svejyilaridan topmaysanmi? Shumshuk, qo'ling singur, juvonmarg, Xudo urdi, qora shaqshaq, he turqing qursin senlarning, jigarlaringni qurt kemirib quritsin, qaro yerga kir, so'tak...

Tadqiqotning **“Qissa syujeti va badiiy xronotop uyg'unligi”** nomli uchinchi bob ham ikki paragrafdan iborat. “Tohir Malik qissalarining syujet poetikasi” deb nomlangan birinchi paragrafda syujetning turlari, tarkibiy qismlari haqida so'z yuritiladi. Yozuvchi Tohir Malik o'z asarlarini yaratishda ko'proq tayyor, hayotiy syujetlardan foydalanadi. Shuning uchun bo'lsa kerak uning asarlarini o'qigan kitobxonlar asar qahramonlarini kimlargadir o'xshatadilar.

“Davron” (“Somon yo'li elchilari”) fantastik qissasi ham ilm-fanning istiqboli haqida. Asarning bosh qahramoni Davron arxeolog. U ustoz Bekmirzayev bilan qazishma ishlarini olib borayotganda odam haykallarini topadi. Qissa fojia bilan boshlanadi. So'ng esa o'sha fojining kelib chiqish sabablari hikoya qilinadi. Unet sayyorasining vakillari Kiv, Rek va Niglar ancha yillar avval yo'qolib qolgan do'stlarini izlab bizning sayyoramizga tashrif buyuradi. Asar retrospektiv syujet asosida tasvirlanadi.

“Talvasa” asarida Akmal Berdiyurovning xotini va qizi o'ldiriladi. O'g'li esa izzsiz yo'qoladi. Uning tirikligidan ham, o'lganligidan ham xabar yo'q. Bu jinoyatni sodir etganlar esa talvasaga tushib, juda ko'p insonlarni o'ldirib yuboradilar. “Alvido, bolalik” qissasida esa Qamariddin maktab o'quvchilari Asror, Dilfuza, G'ayrat, Salimlar bilan ko'prik ustida bir begunoh odamni kaltaklab o'ldiradi. Akula ham jinoyatini yashirish maqsadida ikkita odamni o'ldirtiradi. “Murdalar gapirmaydilar” qissasida ham katta boylikni qo'lga kiritish uchun Nafisa va uning hamkasbi o'ldiriladi, qamoqxonada o'g'rilar bir-birini o'ldirish payida bo'ladi. O'sha yashirilgan boylikka ega chiqish uchun juda ko'pchilik qurbon bo'ladi. Boylik hech kimga vafo qilmaydi, baxt keltirmaydi. Bu ikkala asarda ham uyushgan jinoyatchi to'dalar haqida hikoya qilinadi. Bunday asarlarda jinoyat, ya'ni qotillik ham ko'p va ketma-ket sodir etiladi. Har bir sodir etilgan jinoyat yoki qotillik asardagi bir tugunni bildiradi. Har bir jinoyat bir-biriga qaysidir ma'noda bog'liq bo'ladi.

“Talvasa” va “Murdalar gapirmaydilar” asarlarida ham yozuvchi sir saqlay olish mahoratini namoyon etgan. Asarni o'qiyotgan vaqtda Nafisaning o'limida otasi (Toshbolta), eri (Samandar), o'gay onasi (Adolat), o'ynashi Tursunali, uning

xotini Matlubadan shubha qilamiz. Qotil shulardan biri ekanligiga ishonamiz. Biroq asar so‘nggiga kelganda biz shubha ham qilmagan, o‘zi qamoqxonada jazosini o‘tayotgan Koshak ismli jinoyatchi bu ishni qilganini bilib olamiz. Koshakning qotil bo‘lishi xayolimizga ham kelmagan edi, chunki u turmada jazo muddatini o‘tayotgan bo‘lsa, qanday qilib Nafisani o‘ldirishi mumkin? Nima uchun? Buning barchasiga javob bitta – katta boylik. “Talvasa” romanida Akmal Berdiyurovning xotini va qizining o‘limida ham mayda-mayda o‘g‘rilardan shubhalanamiz. Biroq qotilning kimligini Akmal Berdiyurovning o‘zi yaxshi biladi. Lekin bu sirni asarning oxirigacha tishining kavagida saqlaydi. Faqat qotilning o‘zi bilan yuzma-yuz ko‘rishgandagina sirni fosh qiladi.

Tohir Malik o‘z asari uchun mavzuni ham yaxshi tanlaydi, asar syujetidagi asosiy va yordamchi tugunlarni ham belgilaydi hamda eng muhimi jinoyatchini, uning kirdikorlarini, qilmishlarini o‘ta ishonarli dalillar orqali fosh etadi. Izquvarning qo‘liga jinoyatni fosh etishda ishonchli, hech kim shubha qilmaydigan dalillarni tutqazadi. Demak, dalillash va ishontirish – so‘z san‘atining, ayniqsa, detektiv asarning eng qudratli qurolidir.

Tohir Malik detektiv asarlarida barcha epizodlar va qahramonlarni o‘zbekona ma’naviyat chig‘irig‘idan o‘tkazadi, bu esa, o‘z navbatida, asarni qiziqarli va ibratli bo‘lishini ta’minlaydi. Bu bilan adib asarni oddiy detektiv talqindan ma’naviy detektiv darajasiga ko‘taradi. Detektiv asarlarda biror sirli hodisa yoki mavhum jinoyat ishi sodir bo‘ladi, so‘ng uni qidirish, so‘roqlash boshlanadi. Sir hadeganda yechilavermaydi. Oldinda xilma-xil to‘g‘onoqlar ko‘ndalang bo‘ladi, avtor yoki avtorning izquvar qahramoni sirli hodisa izidan qidirishda davom etadi. Nihoyat asar oxiriga borib, sir fosh bo‘ladi yoki sirli jinoyat izi topiladi. Tohir Malikning “Murdalar gapirmaydilar” qissasida Nafisaning, “Talvasa” romanida Akmal Berdiyurovning xotini va qizining, “Alvido, bolalik” qissasida Mirqosim Mirtillaevning o‘limi bilan bog‘liq sirlar xuddi shunday mavqega ega. Yechimi muammo tug‘dirmaydigan sirlar detektiv syujeti uchun ahamiyatsizdir. Bu sirlar, jinoyatning qaysi turi bilan bog‘liqligidan qat’iy nazar, qanchalik murakkab va asosli bo‘lsa, badiiy asarning detektiv namunasi sifatidagi qiyofasi shunchalik mukammal bo‘ladi.

Syujet liniyasining tarangligi, voqealar ko‘lamining keng va chuqur, murakkab va ziddiyatliligi, badiiy salmoqdorligi, qahramonlarining ko‘p va rang-barangligi, voqea, mazmun va g‘oyasining serqatlamligi, milliyliги bilan Tohir Malik asarlari boshqa asarlardan ajralib turadi.

Bobning ikkinchi **“Qissa syujetida zamon va makon masalasi”** faslida nasriy asarlarda xronotop badiiy yaxlitlikni ta’minlashi va muallif, qahramon va kitobxon o‘rtasidagi munosabatlarni shakllantirishi ta’kidlanadi. Makon va zamon kategoriyalarining birligi adabiyotshunoslikda rus olimi M. Baxtin tomonidan “xronotop” deb nomlandi¹. Munaqqid xronotop adabiyotda inson obrazining tasvirlanishi, asarning janriy xususiyatlari xronotop negizida aniqlanishini romanlar

¹ Бахтин М.М. Формы времени и хронотопа в романе // Вопросы литературы и эстетики. Исследования разных лет. – Москва: Художественная литература, 1975. – С. 504.

misolida o'rgandi. M. Baxtindan so'ng xronotop masalasi Yu.M. Lotman¹, V. Xalizev², N.D. Tamarchenko³ tomonidan tadqiq qilingan. "Adabiyotda badiiy idrok etilgan zamon va makon aro uyg'unlikni biz xronotop deb ataymiz..."⁴ deb yozadi M. Baxtin. Darhaqiqat, badiiy asardagi janr, kompozitsiya, syujet, matn tuzilishi, obrazlarni uyg'unlikda ko'rsatuvchi poetik hodisa xronotop deb ataladi.

Fantastik asarlarda qahramonlar koinotga uchiriladi, chet ellarga sayohat qiladi, biroq Tohir Malikning asarlarida tarixga sayohat qilinadi. "Falak" fantastik qissasida ham bosh qahramon Jahongir yaratgan qurilmasida tarixga, ya'ni elalloma nomli qurilma yordamida XV asrga sayohat qiladi. Asarda Mirzo Ulug'bek yashagan davr, u zamondagi ilm ahli tasvirlanadi. Fantast yozuvchi jiddiy ilmiy faraz, g'oyani xuddi amalga oshganday tarzda ishonarli bayon qilishi shart. Agar adib asarlarida hozirgi davr muammolarini aks ettirmasa, asarining ijtimoiy ahamiyati yo'qoladi. Yozuvchi davr va zamoni hamisha his etadi. Hatto o'tmishga murojaat qilganda ham asarga bugungi kun muammolarini singdirib yuboradi. Shunday qilib, qissada ikki zamon – XV va XX asr voqealari parallel tasvirlanadi.

Asardagi asosiy voqealar Andijon, Toshkent, Samarqandda sodir bo'ladi. Qissa syujetida shahar, shahriston, karvonsaroy, yo'l, mehmonxona, choyxona, qo'rg'on va o'rda, ko'cha, qabriston, ostona, lahm-g'or kabi kichik xronotoplar mavjud. Ular asosiy badiiy hudud maydonlari sanaladi. Mazkur xronotoplarning o'zaro harakatlari, ichki aloqa munosabatlari qissa badiiy matnining yaxlitligini yuzaga keltiradi hamda adibning orzu-istaklari, maqsadlari, idealini amalga oshirishda ko'maklashadi. Qissada faqat tajriba o'tkazilgan kunlar xronologik ketma-ketlikda berilgan. Lekin badiiy syujet oqimidan qaysi davr voqealari tasvirlangani anglashilib turadi. Tajriba 7 bosqichda amalga oshiriladi. Kundalikning sahifasi ham 7 ta.

Tohir Malik "Ov" qissasi fantastika orqali ona yerimizni o'zga sayyoralik fazogirlar ko'zi bilan kuzatib, qatag'on qurbonlarining ayanchli taqdirini qalamga oladi. "Falak" qissasida Tohir Malik fantastikani tarixga bog'lagan edi. "Ov"da ham tarixga murojaat qildi. Har ikkala qissada ham yetuk adibning tajriba va mahorati yaqqol aks etib turibdi. Bu haqda adabiyotshunos B.Karimov shunday yozadi: "Ov" qissasida fantastika bilan asoslangan "ilohiy" yordamchi bug'u obrazi bor. Qissada qatag'on balosiga uchragan, 1938-yillarda Sibir mahbusxonalarida kun kechirayotgan kishilar – Rahmatulloh, Mirhosil, Komissar, Qizil komandirlarning qisqacha hayoti beriladi. Bunda Rahmatulloh imon-e'tiqodli, metin irodali kishi sifatida tasvirlanadi. Diniy pafosi kuchli bo'lgan bu qissada e'tiqod va e'tiqodsiz kishilarning azob-uqubatlarga, sinovlarga bardoshlari botinan muqoyasa qilinadi"⁵. Voqealar, asosan, qamoqxona va o'rmonda sodir bo'ladi. Bu yerda qamoqxona va o'rmon adabiy makon hisoblanadi. Asarda qamoqxona tasviri quyidagicha chiziladi: "Bu qamoqxona qush uchsa qanoti, odam yursa oyog'i kuymaydigan, ammo

¹ Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970. – 265 с.

² Хализев В. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 2002. – 248 с.

³ Поэтика: словарь актуальных терминов и понятий / [гл. науч. ред. Н.Д.Тамарченко]. – М.: Издательство Клуагиной; Интрада, 2008. – 287 с.

⁴ Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975. – С. 234-235.

⁵ Каримов Б. Рухият алифбоси. – Тошкент: Фафур Фулом, 2018. – Б. 21.

qushning ham, odamning ham yetib kelmog'i mushkul bo'lgan uzoq bir o'rmonzorga joylashgan edi"¹. Tasvirdan ma'lum bo'ladiki, bu yerda hayot kechirish ham oson emas. Bu yerdagi siyosiy mahbuslarga odam emas, xalq dushmani deb qaralgan. Qamoqxona boshlig'i ularni ko'rarga ko'zi bo'lmagan. Boshliq osuda hayotga toqat qila olmagan. Shuning uchun qamoqxonadagi o'g'ri-kallakesarlarni ishga solib siyosiy mahbuslarni do'pposlatar va shu yo'l ko'ngil xumorini yozardi. Keyinchalik boshliqqa bu ham kamlik qildi. Endilikda u o'yinning yangicha usulini o'ylab topdi. Avvallari o'rmonda har xil hayvonlarni ovlagan Boshliq endi odamlarni ovlay boshladi. Ularni qochishga undab, otib o'ldirardi.

Xronotop ba'zi asarlarda izchil, tartibli aks etsa, ayrim qissalarda boshqacharoq xususiyat kasb etadi. Tohir Malikning "Alvido, bolalik" qissasida voqealar ma'lum bir xronologik tartib asosida rivojlanadi. Asar Asrorning uyqudagi talvasasi bilan boshlanadi. So'ngra xayolida Qamariddin, Salimning aslida qanday inson ekanligini anglashga harakat qiladi. Keyin maktabdagi do'stlari Turob, Dilfuza va maktabdagi voqealar bir-biriga ulanib ketadi.

"Murdalar gapirmaydilar" qissasida jamiyatdagi chirkin illatlarga qarshi turganligi sababli nohaq qamalib, so'ng jinoyat olamida katta maqomga ega bo'lib ketgan, ya'ni jinoyat olamining tojdoriga aylangan Tengiz va uning sevimli lagerdoshiga aylangan Nuriddinning hayot yo'li tasvirlanadi. Asarda Sibirdagi qamoqxona lageri adabiy makon sifatida olingan. Voqealarning aksariyati shu lagerda, Sibir o'rmonlarida sodir bo'ladi. O'zbekistondagi voqealar Tursunali yashagan qishloq sovxozi va Nafisa yashagan shahardagi metro yonida joylashgan uyda voqelanadi. Bundan tashqari adib asarlarida tush xronotopidan ham unumli foydalanadi. "Alvido, bolalik", "Murdalar gapirmaydilar", "Ov" qissalarida buning yorqin namunasini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, T.Malik qissalari janr xususiyatlari, kompozitsion tuzilishi, obrazlarining serqirraligi, talqin yo'sini, uslub badiiyati, badiiy konsepsiyasining o'ziga xosligi bilan XX asr o'zbek nasrida o'ziga xos o'ringa ega. Ayni qissalar o'zining yuksak estetik qimmatini, milliy axloqni poetik talqin etishiga ko'ra ulkan badiiy va ma'naviy ahamiyatga egaligi isbotini topdi.

XULOSA

"Tohir Malik qissalari poetikasi" mavzusidagi dissertatsiya tadqiqotining natijalari quyidagilardan iborat.

1. Tohir Malik o'zbek adabiyotiga fantastik, detektiv va ma'rifiy asarlari bilan yangi yo'nalishlarni olib kirdi. Syujet liniyasining tarangligi, voqealar ko'laminin keng va chuqur, murakkab va ziddiyatligi, badiiy salmoqdorligi, qahramonlarining rang-barangligi, voqea, mazmun va g'oyasining serqatlamligi, milliyligi bilan Tohir Malik asarlari boshqa asarlardan ajralib turadi. Adib ijodi 3 davrga bo'lib o'rganildi: 1. Mustaqillikkacha, 2. 1991-yildan – 2000-yilgacha va 3. 2000-yildan keyingi davr. Ikkinchi davr adib ijodining eng salmoqli qismini tashkil etishi dalillandi. Bu davrda Tohir Malikning beshta yirik asari – "Shaytanat", "Murdalar gapirmaydilar",

¹ Тоҳир Малик. Ов. – Тошкент: DAVR PRESS, 2011. – Б. 5.

“Talvasa”, “Ov”, “Charxpalak” yozildi. Shular asosida yozuvchi ijodining tadrijiy takomili belgilandi, ularga xos fantastik, detektiv, biografik, didaktik konsepsiyalar yoritib berildi.

2. Tohir Malikning “Falak”, “Davron”, “Zaharli g‘ubor” singari fantastik, “Alvido, bolalik”, “Ov”, “Charxpalak”, “Murdalar gapirmaydilar”, “Talvasa” singari detektiv, “Savohil”, “Ozod inson haqida qo‘shiq” singari biografik qissalari tasnifiy o‘rganildi hamda original qissanavis ekanligi dalillandi. Bu qissalarda yozuvchining kelajakka oid badiiylashtirilgan ilmiy gipotezalari namoyon bo‘lgan. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, fantastika asarlarda erishilgan yutuqlar adibning ilmiy tafakkuri va bilim doirasining kengligi bilan bog‘landi. Tohir Malik tarixni bugun bilan bog‘lash uchun o‘tmishga murojaat qiladi.

3. Yozuvchining obrazlar olamini tasvirlash mahorati, qahramonlar ruhiy olamini qay yo‘sinda talqin etishi dalillandi. Qissa qahramonlarining ruhiy holatlari, kechinmalari, ularning xarakteri, iztiroblari, jinoyat olamidagi o‘rni va mohiyati tahlil qilindi. Tengiz, Toshbolta, Nuriddin, Tursunali, Omonullo, Soli Murodov, Maqsud Soliev, Keldiyor, Akrom Berdiyurov – Toshqul, Qamariddin, Asror, G‘ayrat, Dilfuzalar Tohir Malik yaratgan badiiy olam fuqarolaridir. Yozuvchining qahramon fitratini mukammal yoritishi, turli sinovlarda toblanishini asoslashi va asoslar hech kimda shubha uyg‘otmasligi ko‘rsatib o‘tildi.

4. Ilohiy ilhom bilan yozilgan ba‘zi zamonaviy qissalarda bir fikr bilan nafas olish xususiyati mavjud. O‘zbek adabiyotida T. Malikning “Talvasa”, “Murdalar gapirmaydilar”, “Alvido, bolalik” qissalari inson jinoyatchi bo‘lib dunyoga kelmaydi, uning jinoyatchi bo‘lishiga odamlar va ijtimoiy muhit sababchi bo‘lishi haqidagi bitta umumiy fikr ilgari suriladi. Adib o‘z fikrini dalillash maqsadida qissalarida muqaddas kitob “Qur‘oni Karim”dan oyatlar keltiradi. Tohir Malik asarlarida axloqiy didaktika, etika masalalari badiiyatga shunday o‘rab tasvirlanadiki, bu uni qodiriyona usulga yaqinlashtiradi. Yozuvchining mustaqillikdan keyingi davrda yaratilgan qissalarida Qur‘oni Karim oyatlari hamda hadisi shariflardan o‘rnida, unumli foydalangan tadqiq qilindi. Mustaqillikdan avvalgi yillarda yozilgan qissalarida hadislardan foydalangan o‘rinlar uchramaydi. Bunga o‘sha davrda asarlarning syenzuradan o‘tkazilishi sabab bo‘lgani aniqlandi.

5. Jahon adabiyotida Onore de Balzak ijodida qahramonlarning asardan asarga aynan ko‘chib yurishi kuzatiladi. Tohir Malik asarlarida esa ismlar takrori mavjud. Adibning asarlarida Qamariddin ismi “Alvido, bolalik” (qissadagi bosh qahramon), “Falak” (Mirzo Ulug‘bekning sipohi), “Talvasa” (o‘g‘ri bola) qissalarida uchraydi. Yozuvchi qattiq adashgan, riyokorlik qilgan, iymonini sotgan, insoniylikdan yiroqlashgan qahramonlarga ism berishni lozim topmaydi. U bunday kishilarni umumlashtirib, ismsiz, xususan, Boshliq, Yordamchi, Komissar, Qizil Komandir, Vakil deb ataydi. “Falak”da esa o‘ta shafqatsiz, sallani olib kel desa boshi bilan birga olib keladigan, kaltafahm, din va ilmdan xabari yo‘q, johil qahramonlarni sallali kishi, mo‘ylovi o‘sib labini bosib qolgan yigit nomlari bilan kinoyaviy tasvirlaydi. Tohir Malik asarlarida ayollar obrazi kam uchraydi. Biroq kam sonli ayol qahramonlarni ham maromiga yetkazib tasvirlaydi. Ularning dardu umidlari, kechinmalari, adashib qing‘ir yo‘lga kirib qolganini adib ishonchli dalillaydi.

6. Uslub har bir yozuvchida turlicha bo'ladi. Tohir Malik ham yozuvchi sifatida o'z uslubiga ega. Bu uning tilida, qahramonlar portretini chizishda, tasvir va ifoda vositalardan foydalanishda ko'zga tashlanadi. Yozuvchi "Murdalar gapirmaydilar" qissasida qahramonlarga boshdan-oyoq portret yozmaydi. Yozuvchi qahramonlarining qiyofasi, xarakteriga xos ayrim detallarni berish bilan kifoyalanadi. T. Malik so'z qo'llashda ham ehtiyotkor bo'lib, ma'lum bir vaziyat va holat, umuman, voqelikni tasvirlashda so'zlarni topib o'rnida ishlata oladi. Asarda yuzlarcha maqollar, maxsus ifodalar, tugal gaplar, qochirimlar, so'z o'yinlari ko'zga tashlanadi. Yozuvchi personajlar nutqiga juda ustalik va me'yorni saqlagan holda xalq maqollari, frazeologik birliklarni kiritadi. Ular qahramonlarning ruhiy dunyosini, xarakterini, aslida qanday insonligini teranroq ochishga turtki bo'ladi

7. Tohir Malik qissalariga xos syujet va xronotop masalasi boshqa nosirlardan tubdan farq qiladi. Detektiv asar syujetiga xos tugun ketidan tugun solish hodisasi ham sirlilikning mantiqiy davomi sifatida yuzaga chiqadi. Qahramonlar nutqi, xatti-harakatlarida bo'y ko'rsatuvchi sirli tugunlar kitobxonida syujetdagi asosiy tugundan ham ko'proq qiziqish uyg'otadi. Natijada asarda jinoyatchi deya gumon qilingan bir necha faol qahramonlar paydo bo'ladi. Bu holat syujetdagi tugunlar silsilaviyligini ta'minlab, detektiv namunalarning takrori bo'lib qolishdan saqlaydi. Gumon va taxminning tekshirilishi, buning natijasida syujetdagi asosiy muammo yechimi sari yo'l topilishi, bu jarayonning ishonarli manzarasi detektiv namunalarni san'at asari darajasiga ko'taradi. Jahon adabiyotida E. Po, A. Konan-Doyle, J. Semionov kabi adiblar bu sohada maktab yaratgan so'z ustalari bo'lishsa, bunday san'atkorona usul ta'sirini O. Umarbekov, O. Muxtor, M. Soipov, Tohir Malik kabi o'zbek yozuvchilari asarlarida ham sezish mumkin.

8. Detektiv asar syujetiga xos yana bir muhim jihat tasvir sur'atining shiddatkorligidir. Jinoyat va uni fosh etish jarayoni o'ziga xos tezkorlikni talab etadi. Bu talab, so'zsiz, asar qahramonlariga ham, muallifga ham daxldordir. Binobarin, gap sirli, fojiali jinoyat va uning aybdori – xavfli jinoyatchini qo'lga tushirish haqida ketayotgan, bu jarayonga turli ijtimoiy, intim motivlar tasvirini aralashtirish yaxshi natija bermaydi. Kitobxon izquvarlarga xos shiddatni kutayotgan bir paytda qahramonlar va manzaralar tasviri bilan bog'liq batafsil mulohazalar detektiv syujeti uchun ortiqcha. Tohir Malikning "Alvido bolalik" va "Shaytanat" asarlarida shiddatkorlikdan chekinilib, haddan ortiq izohlovchilik yo'lidan borilganligi ko'zga tashlanadi.

9. Ma'lumki, so'z san'ati kitobxonni nafaqat voqea-hodisa tafsilotlari, balki badiiy jozibadorligi bilan ham hayratga solishni nazarda tutadi. Detektiv asar syujetida kitobxon tabiat va inson holatlari, ruhiy kechinma va qalb manzaralarining har tomonlama aks etuvchi tasviriga ko'pda duch kelmaydi. Jinoyat sirini ochishning ishonarli manzarasi tufayli asarda tasvir imkoniyatlaridan chekinib, bayonning yetakchi o'ringa chiqqanligi sezilmay qoladi. Demak, detektiv asar muvaffaqiyati ko'p jihati bilan syujetdagi asosiy nuqta – jinoyatni fosh etish manzarasiga bog'liqdir. Jahon detektiv nasri namunalarning muvaffaqiyati so'zsiz ana shunday kutilmagan va mantiqiy dalillangan yechimga ega ekanligidir.

10. Adib asarlarining syujeti, kompozitsion qurilishi, xilma-xil qahramonlar va xarakterlar yaratishning o‘ziga xos usuli, badiiy talqinda muallif konsepsiyasi ko‘rsatildi. Yozuvchi Tohir Malik o‘z asarlarini yaratishda ko‘proq tayyor, hayotiy syujetlardan foydalanishi, xalqdan olib xalqqa berishi, shuning uchun uning asarlarini o‘qigan kitobxon asar qahramonlarini kimlargadir o‘xshatishi dalillandi. Tohir Malik syujetning xronologik va konsentrik turidan mohirona foydalangani ochib berildi. Tohir Malik detektiv asarlarida barcha epizodlar va qahramonlarni o‘zbekona ma’naviyat chig‘irig‘idan o‘tkazadi, bu esa, o‘z navbatida, asarni qiziqarli va ibratli bo‘lishini ta’minlaydi. Bu bilan adib asarni oddiy detektiv talqindan ma’naviy detektiv darajasiga ko‘taradi.

11. Nasriy asarlarda xronotop badiiy yaxlitlikni ta’minlashi va muallif, qahramon va kitobxon o‘rtasidagi munosabatlarni shakllantiradi. Tohir Malikning qissalarida ham makon va zamon bir butunlikda tasvirlanadi. “Murdalar gapirmaydilar” qissasida Sibirdagi qamoqxona lageri adabiy makon sifatida olingan. Voqealarning aksariyati shu lagerda, Sibir o‘rmonlarida sodir bo‘ladi. O‘zbekistondagi voqealar Tursunali yashagan qishloq sovxozi va Nafisa yashagan shahardagi metro yonida joylashgan uyda voqelanadi.

12. Fantastik asarlarda qahramonlar koinotga uchiriladi, chet ellarga sayohat qiladi, biroq Tohir Malikning asarlarida tarixga sayohat qilinadi. “Falak” fantastik qissasida ikki zamon – XV va XX asr voqealari parallel tasvirlanadi. Yozuvchi jiddiy ilmiy faraz, g‘oyani xuddi amalga oshganday tarzda ishonarli bayon qiladi. Yozuvchi davr va zamoni hamisha his etadi. Hatto o‘tmishga murojaat qilganda ham asarga bugungi kun muammolarini singdirib yuboradi. Asar syujetida shahar, shahriston, karvonsaroy, yo‘l, mehmonxona, choyxona, qo‘rg‘on va o‘rda, ko‘cha, qabriston, ostona, lahm-go‘r kabi kichik xronotoplar mavjud. Ular asosiy badiiy hudud maydonlari sanaladi. Mazkur xronotoplarning o‘zaro harakatlari, ichki aloqa munosabatlari qissa badiiy matnining yaxlitligini yuzaga keltiradi hamda adibning orzu-istaklari, maqsadlari, idealini amalga oshirishda ko‘maklashadi. Bundan tashqari, adib asarlarida tush xronotopidan ham unumli foydalanadi.

**SCIENTIFIC COUNCIL OF DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01 OF THE
TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND
LITERATURE NAMED AFTER ALISHER NAVOI**

**TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND
LITERATURE NAMED AFTER ALISHER NAVOI**

RASULOVA SARVINOZ SADATOVNA

THE POETICS OF TOHIR MALIK'S STORIES

**10.00.02 – 10.00.02 – Uzbek literature
(Uzbek literature of the 20th century and the current literary
process)**

**ABSTRACT OF DISSERTATION
FOR THE DEGREE OF PHILOSOPHY (PhD) ON PHILOLOGICAL
SCIENCES**

Tashkent – 2025

The theme of the dissertation for Doctor of Philosophy (PhD) was registered at the Supreme Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan under number. B2017.1.PhD/Fil33.

The dissertation has been carried out at the Termiz State University.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (abstract)) on the Scientific council's website (www.tsuull.uz) and on an informational and educational portal Ziyonet (www.ziyonet.uz).

Scientific adviser:

Karimov Bahodir Nurmetovich
doctor of philological sciences, professor

Official opponents:

Yakubov Islomjon Axmedjanovich,
doctor of philological sciences, professor

Xoliqov Bahodir Aliqulovich,
Doctor of Philosophy (PhD)
in Philological Sciences, Associate Professor

Leading organization:

Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan

The defence of dissertation will take place on “_____” _____ 2025 at _____ at the meeting of Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 at the Tashkent State University of Uzbek language and literature named after Alisher Navoi. Address: 100100, Tashkent, Yakkasaroy district, Yusuf Xos Hojib, 103. Phone: (99871) 281-42-44; Fax: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

The dissertation is available at the Information Resource Center of the Tashkent State university of Uzbek language and literature named after Alisher Navoi (registered under number #_____). Address: 100100, Tashkent, Yakkasaroy district, Yusuf Xos Hojib, 103. Phone: (99871) 281-42-44; Fax: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

Abstract of dissertation is sent out on “_____” _____ 2025.

(Protocol registered of #_____ on “_____” _____ 2025)

H.A.Dadaboyev
Chairman of the Scientific council
awarding scientific degrees,
Doctor of philology, professor

Q.U.Pardayev
Scientific secretary of the scientific
council awarding scientific degrees,
Doctor of philological sciences, professor

N.A. Jabbarov
Chairman of the scientific seminar under
the scientific council that grants scientific,
Doctor of philological sciences, professor

Introduction (Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) Dissertation).

Relevance and necessity of the dissertation topic. In world literary studies, the process of renewal occurring in 20th-21st century literature, particularly in prose, has been an ongoing subject of research. This includes studying the literary heritage of individual authors within the context of their era, literary environment, and the broader literary-historical process. It also involves tracking the internal poetic evolution of their work, analyzing the hierarchy of literary characters, the writer's creative style, the individuality of their artistic speech, and the complex study of plot poetics. These issues have always been considered highly relevant. Significant research has been carried out in this area. The period of independence has provided immense opportunities for scientific and intellectual communities to engage in free, pluralistic thinking. The need to analyze and study works in the genre of the short story, written during this period of globalisation and intense development, using the advanced achievements of world literary studies, has become even more pressing. Additionally, a focus on the human factor has opened up opportunities to assess the spiritual and psychological world of the characters based on timeless values. In this context, the re-evaluation of the literary legacy of Tohir Malik, a prominent Uzbek writer and one of the founders of Uzbek literary fantasy, and the exploration of the artistic sophistication of his short stories, determine the relevance of this research.

The theoretical generalizations of studies conducted in world literary studies, particularly in the post-Soviet space, regarding the genre of the short story and its poetic nature, have created a need to re-assess the examples that emerged during the earlier stages of literary development. Indeed, analyzing and researching the development of the short story genre on the basis of updated literary-aesthetic canons will enrich literary studies by introducing new theoretical generalizations. It will also provide an opportunity to clarify the principles of contemporary development and forecast its future trajectory.

Building on the achievements of Uzbek literary studies during the years of independence, it is important to re-evaluate the creative legacy of dedicated writers who have contributed significantly to the genre of the short story in our national prose. This includes examining the family-genetic codes that inspired their work, the evolved creative environment, literary succession, individual creativity, and the secrets of their poetic mastery from a scientific-theoretical perspective. This research aims to demonstrate the role and significance of Tohir Malik's creative legacy in the development of Uzbek short story writing as a critical theoretical problem. Indeed, the ongoing cultural, educational, and literary renewal in Uzbekistan poses new challenges for Uzbek literary studies. As the country embarks on a path of innovative development aimed at radically transforming all spheres of state and societal life, it is clear that "today, those who rely on new ideas and innovation will win"¹.

The Presidential decrees and resolutions of the Republic of Uzbekistan, such as PF-4797 dated May 13, 2016, on the establishment of the Alisher Navoiy

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi. – Toshkent, 2017. 23-dekabr.

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, PF-5847 dated October 8, 2019, approving the “Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030,” PF-60 dated January 28, 2022, concerning the “Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026”, and PF-158 dated September 11, 2023, on the “Uzbekistan – 2030 Strategy”, as well as PQ-3271 dated September 13, 2017, on the “Program of Comprehensive Measures for the Development of the Publication and Distribution System of Books, Promotion of Reading, and Culture of Book Consumption,” PQ-3652 dated April 5, 2018, on “Measures to Further Improve the Activities of the Writers’ Union of Uzbekistan”, and the August 3, 2017, address by the President of Uzbekistan during a meeting with representatives of the country’s creative intellectuals, titled “The Development of Literature, Art, and Culture is the Foundation for Elevating the Spiritual World of Our Nation”, along with other normative-legal documents related to this field, all serve as a foundation for implementing the objectives outlined in this dissertation research. This study aims to contribute, to a certain extent, to the realization of these goals.

Relevance to the Priority Directions of National Science and Technology Development. This research aligns with the priority direction of the development of science and technology in the Republic of Uzbekistan: I “Forming and implementing innovative ideas to foster social, legal, economic, cultural, and spiritual-educational development in an informed society and democratic state”.

Degree of Problem Investigation. In Uzbek literature, some analyses of Tohir Malik’s works have been reflected in articles by scholars such as R.Ibrohimova¹, H.Karimov², A.Ulug‘ov³, T.Shermurodov⁴, K.Turdiyeva⁵, and B.Karimov⁶. However, the evolution of Tohir Malik’s creativity, the system of characters in his novellas, plot poetics, the harmony of time and space, poetic language, and stylistic features have not yet been studied as a specialized research object in the context of Independence-era literary studies. While some of the writer’s short stories and novellas, as well as certain aspects of the novel Shaytanat, have been explored, a comprehensive study remains absent. For example, T.Irisboyev and Sh.Sulaymonov have examined the development characteristics of Uzbek detective literature through Shaytanat; D.Quvvatova and R.Ibrohimova’s dissertations analyzed folkloric motifs in Uzbek scientific and artistic fiction, using Tohir Malik’s short stories as examples. Similarly, B.Xoliqov and R.Umurzoqov⁷

¹ Иброҳимова Р. Ўзбек фантастикасида мавзулар кўлами ва ундаги услубий изланишлар // Илм сарчашмалари. – Урганч, 2003. 3-сон; Иброҳимова Р. Ўзбек фантастикаси тараққиёт муаммолари // Соғлом авлод учун, 2003. 7-сон.

² Каримов Ҳ. Фош этишнинг калити – тафаккур // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1998. 13 ноябрь.

³ Шайтанат бозорга чиқди (Тоҳир Малик ва Абдулла Улуғов мулоқоти) // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1996. 8-март; Улуғов А. Маън қилинган майдондагилар // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1998. 17 июль; Улуғов А. Зиддиятлар талқини // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1996. – № 10.

⁴ Шермуродов Т. Ҳидоятнинг машаққатли йўли // ЎзАС, 1998. 30 октябрь.

⁵ Турдиева К. Шайтонсарой фожеаси // Миллий тикланиш. – Тошкент, 1996. 24 декабрь.

⁶ Каримов Б. Бадиий талқин жозибаси / Рухият алифбоси. – Тошкент: Гафур Ғулом, 2018. – 364 б.

